Balog’at ostonasida o’quvchilarning bilim olishlaridagi yutuq va kamchiliklar.

Andijon viloyati, Izboskan tumani 2-son
texnikumi tarix fani o’qituvchisi

Hamdamova Gulchehraxon.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o’smirlar, balog’at yoshidagi o’quvchilarning bilim olish jarayonidagi psixologik, ijtimoiy va pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi. Inson o’smirlik davrida unda muayyan hissiy o’zgarishlar sodir bo’ladi. O’smir mustaqil fikrlash yo’lini tutadi. Ayrim o’spirinlarda har narsaga qiziqish ortadi va dunyoqarashi kengayadi. Ayrimlari esa nisbatan befarq, diqqat e’tiborida sustlik, o’ziga ishonchsizlik kamchiliklari ham kuzatiladi. Mazkur yoshdagi o’quvchilarning muvaffaqiyatga erishuvlarida avvalo oilaning, ta’lim dargohining, o’qituvchilarining o’rni, zamonaviy va an’anaviy ta’lim usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Balog’at davri, o’smir psixologiyasi, bilim olishi, ta’lim samaradorligi, motivatsiya, o’quvchi intilishi, tarbiya, mustaqil fikrlash, pedagogik psixologik yondoshuv, ta’lim va tarbiya uyg’unligi,’’ shaxsiy men’i’ning paydo bo’lishi.

Har bir inson umrida balog’at davri murakkab, muhim va e’tibor talab davr hisoblanadi .Bu davrda o’smirda nafaqat jismoniy o’zgarishlar paydo bo’ladi balki unda psixologik, ruhiy, aqliy, ijtimoiy o’zgarishlar sodir bo’ladi. O’smirlik 11-16 yosh oralig’ini qamrab oladi. Inson shaxsi shakllanishidagi munim bosqich hisoblanadi. Aynan shu oraliqda insonning o’zini tanishi, maqsadlari haqida tasavvurlarga ega bo’lishi, bilim olishga ishtiyoqi, ayrim narsalarda o’ziga kimlarnidir raqib sanashi, kelgusi hayoti uchun rejalar shakllantirishi yuz beradi.O’z fikrini bildirishga, kerak bo’lsa uni haq deb turib olishga , atrofdagilar tomonidan uni quvvatlanishiga va e’tibor qilishlariga urinadi.Shu boisdan ular bilan ishlashda pedagog murabbiylar alohida psixologik yondoshuv bilan qarashlari, sabr bilan ish olib borishlari kerak bo’ladi.Ustoz o’smirning ichki olamiga nazar tashlay bilishi, tushunishi kerak bo’ladi.Ayrim qo’lga kiritgan yutuqlari, izlanishlari haqida ijobiy fikr bildirib intilishlarini orttirishi zarur.

O’smir 11-16 yosh oralig’ida juda izlanuvchan, intiluvchan aktiv bo’ladi. Atrofida bo’layotgan voqealarga o’z munosabatini bildirib xulosalar chiqaradi. Avval oddiy yod olib yurgan bo’lsalar endi mavzu mohiyatini to’liq tushuna boshlaydi, hatto tahlil qiladi. ”Nimaga”, ”Qanday qilib” savollarini bera boshlaydi. Mustaqil fikrlaydi. Unda ayrim fanlarga, sportga, san’atga , xorijiy tillarni o’rganishga, kompyuterni o’rganishga qiziqish kuchayadi. O’smir qiziqishining ortishi natijasida uning xotira maydoni kengayadi. Qiziqqan mavzusini o’rganish uchun qo’shimcha manbalar topadi.

Ijtimoiy faolligi ortadi. Jamoa bilan ishlash yoqadi va turli tadbirlarda, bellashuvlarda qatnashadi,alohida maqtovlar eshitgisi keladi, liderlik belgilarini ko’rsatadi. Muloqot ko’nikmalari o’sib boradi.

Bilim olishda o’spirinlik davrida ayrim kamchiliklar ham bo’ladi. Har narsaga teng qiziqib ketish natijasida chalg’ish yuz beradi. Hissiyotga beriluvchan bo’lib qolishi, qo’l telefonlari, internet, tengdoshlari ta’siri sababli diqqati tarqoqlashishi mumkin. Bilim o’zlashtirishi susayib o’ziga bo’lgan ishonchi shakllanmaydi.O’zida qobiliyat yo’q deb qaraydi va jamiyatdan o’zini olib qochadi.O’qishni o’z saviyasini, bilimini opttirish emas majburiyat deb qaraydi.

Balog’t davrida kayfiyat tez-tez almashib turadi. Faollik tushkunlikka yo’l ochadi. O’smirga o’z fikridan ko’ra atrofdagi do’st-dugonalari fikri muhim tuyuladi. No’to’gri oilaviy muhit va tarbiyasida kamchiligi bor bolalar bilan do’st tutinishlik ta’limga bo’lgan intilishni susaytiradi.

Ota- onalar farzandlarini tushunishlari, ularga ishonch bildirishlari,doimiy tanqid emas, umid bildirib qo’llab quvvatlashlari kerak.

O’qituvchi faqat fannigina tushuntirib qolmay, balki o’quvchining ichki olami, ruhiyati bilan ham qiziqishi kerak. Ota - ona bilan hamkorlik qilishi , internet tarmoqlaridan to’g’ri foydalanishni o’rgatishi,do’st tanlashida, kasb tanlashida yordam berishi kerak.

Alisher Navoiy , Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur kabi buyuklarimiz ham o’smir tarbiyasi haqida qimmatli fikrlarini bildirganlar. Navoiy “Mahbubul qulub” asarida yoshlarni ota - onaga hurmat, ustozlar o’gitlariga quloq solish, salbiy odatlardan qochish haqida yoritadi.

Bobur ham farzandlariga ilmli bo’lish, kattalarga hurmat, o’z obrosini saqlash, vatanni sevish kabilarni uqtiradi.

Amir Temur faqat davlat ishlari bilan band bo’lib qolmasdan yosh avlod tarbiyasiga ham katta ahamiyat beradi. Yoshlarni tadbirli bo’lishga, Vatanni sidqidildan qo’riqlashga, mard va jasur bo’lishga undaydi.

O’quvchini aqlan va jismonan yetuk bo’lib kamol topishi nafaqat ota onaning balki ustozlarning ham vazifasidir .Bugungi o’smir ertangi kun egasi, davlat ishlarini boshqaruvchi, tarbiya beruvchi, ilm o’rgatuvchi, Vatanni himoya qiluvchidir. O’smirlarni o’z dunyosiga mos ravishda hurmat bilan qarab fikrlarini to’g’rilab, to’ldirib, qollab - quvvatlashda o’z sa’y – harakatlarini ta’lim va tarbiya beruvchilar ayamasliklari kerak. Zero, niholligida to’gri tarbiya topgan o’spirin aynan komil va fozil inson bo’lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimova V.M Psixologiya -Toshkent. O’qituvchi,2019.
2. Davletshin M. G. Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent. 2018.
3. Hasanboyev J. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2017.
4. To’xtaxodjayeva M. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.Toshkent,2021.
5.”O’zbekiston Respublikasi Ta’lim to’g’risida” gi qonuni.
6. Abdullayeva Sh. O’smirlar psixologiyasi va tarbiyasi - Toshkent,2022.
7. A.Navoiy. Mahbub-ul qulub. Toshkent. 2005.